

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

31680,1 mlrd.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi	101,9 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
2315,8 mlrd.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish	103,9 % o'sish sur'ati
7,3 % iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	12,3 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 31680,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash –104,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati - 99,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 129,2% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 97,2 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 11,1 %



Ishlab chiqaradigan jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 82,9 %



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 5,8 %



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish jami sanoat ishlab iqrishdagi ulushi 0,2%



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3511,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajming 11,1 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26280,9 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,9 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,5 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 6,1 %, o'rta-quyi texnologiyali - 85,1 % va quyi texnologiyali 8,3 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-sentabr



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,8 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,7 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,8 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,3 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	--------------------------

Portlandsement, ming tonna

2777,0



2750,0

99,0

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

27709,5



44108,0

159,2

Ammoniy nitrat, ming tonna

165,27



182,19

110,2

<i>2018 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
--	--	--	--------------------------

Temir beton, tonna

38666,6



36585,0

94,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1835,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
---	---	---	---------------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

41819,0



30193,0

72,2

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm

9928,2




14263,6

143,72

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan FHI, %
Navoiy viloyati	31680,1	100,0	101,9
Navoiy sh	26481,7	83,6	100,9
Zarafshon sh	172,0	0,5	101,5
<i>tumanlar</i>			
Karmana t	3023,3	9,5	117,0
Konimex t	212,4	0,7	106,3
Qiziltepa t	642,9	2,0	110,4
Navbahor t	326,4	1,0	105,9
Nurota t	216,5	0,7	108,9
Tomdi t	32,8	0,1	108,8
Uchquduq t	79,3	0,3	104,5
Xatirchi t	492,8	1,6	102,9

2019-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan %




Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Qiziltepa (2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,4 %), Karmana (117,0 %), Nurota (108,9 %), Tomdi (108,8 %), Konimex (106,3 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (100,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2315,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,9 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarining o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %




Shu bilan birga Karmana (2018-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 110,7 %), Tomdi (106,7 %), Navbahor (105,8 %), Nurota (104,8 %), Konimex (105,7 %) va Uchquduq (102,5 %) tumanlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarilishi sezilarli darajada oshdi.

**2019-yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi,
tarkibi va o'sish sur'ati**

	2019 yil yanvar-sentabr, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish, %
Navoiy viloyati	2315,8	100,0	103,9
Navoiy sh	655,7	28,3	100,8
Zarafshon sh	132,5	5,7	103,4
<i>tumanlar</i>			
Karmana t	381,6	16,5	110,7
Konimex t	55,1	2,4	105,7
Qiziltepa t	285,5	12,3	102,4
Navbahor t	189,9	8,2	105,8
Nurota t	168,8	7,3	104,8
Tomdi t	32,4	1,4	106,7
Uchquduq t	69,8	3,0	102,5
Xatirchi t	344,5	14,9	102,6

**Yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining tarkibi, %**



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi



Oziq-ovqat mahsulotlari
892,3 mlrd.so'm



Aroq va sharob mahsulotlari
0,4 mlrd.so'm



Nooziq-ovqat mahsulotlari
1423,1 mlrd.so'm


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 589,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %

2018 yil yanvar-sentabr




2019 yil yanvar-sentabr




Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar

Viloyatning boshqa korxonalari

***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %***



2019-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (193297,4 ming so'm), Karmana (23418,6 ming so'm), Konimex (6033,3 ming so'm) va Qiziltepa (4280,0 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 4786,2 ming so'mni, Karmana tumani - 2956,1 ming so'mni, Tomdi tumani - 2232,0 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 1900,7 ming so'mni, Uchquduq tumani - 1874,8 ming so'mni va Nurota tumanida – 1842,7 ming so'mni tashkil etdi.

	<i>Sanoat mahsulotlari, ming. so'm</i>		<i>Istemol mollari, ming. so'm</i>	
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>
Viloyat bo'yicha	17190,6	32129,9	2300,4	2348,7
<i>shahar</i>				
Navoiy	98064,8	193297,4	4793,5	4786,2
Zarafshon	1792,9	2075,0	1567,5	1598,8
<i>tumanlar</i>				
Karmana	13330,8	23418,6	2758,7	2956,1
Konimex	4615,4	6033,3	1494,4	1566,4
Qiziltepa	3194,3	4280,0	1887,6	1900,7
Navbahor	2590,5	2924,4	1641,1	1701,7
Nurota	1681,9	2363,3	1788,8	1842,7
Tomdi	1763,3	2263,7	2106,0	2232,0
Uchquduq	1682,5	2131,8	1839,3	1874,8
Xatirchi	1978,0	2505,4	1738,2	1751,5


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3905,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznes ulushi



Kichik biznes ishlab chiqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd.so'm



2019 yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (99,1 %), Qiziltepa (92,0 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (85,6 %), kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (2,0 %), Konimex (27,8 %), Karmana (47,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 110ta loyiha bo'yicha 430,9 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 799,73 ming.AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 9 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari


	2018 yil yanvar-sentabr	2019 yil yanvar-sentabr
Loyixalar soni, <i>birlik</i>	65	110
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	14	14
Ishlab chiqarish xajmi, <i>mln.so'm</i>	188793,9	430936,6
Shu jumladan eksportga sotilgan, <i>ming AQSHdoll.</i>	1203,2	799,73
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, <i>birlik</i>	-	9

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2613 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 649 tasi (mavjud korxonalar umumiyligi sonining 24,8%) Navoiy shahriga, 428 tasi (16,4%) Karmana tumaniga, 327 tasi (12,5 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2019 yil 1-oktabr holatiga)



2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 1071 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 20,5 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik

(2019 yil yanvar-sentabr)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
telefoni: (436) 223-33-29